- ✓ Elektr simi kir yuvish mashinasi tagida qolmaganiga ishonch hosil qiling, uning shikastlanishiga yo'l qo'ymang.
- ✓ Shlang ulanmalari yaxlitligiga, suv sirqishi hollari yo'qligiga ishonch hosil qiling. Agar ulanmalar bo'shab qolgan yoki suv sirqiyotgan bo'lsa, kranni berkiting va nosozlikni bartaraf eting. Toki shlanglar soz holatda bo'lmas ekan, kir yuvish mashinasidan foydalanmang.

TAQIQLANADI

- ✗ Oyoqyalang holatda elektr asbobiga tegmang. Ho'l qo'llar yoki oyoqlar bilan ham elektr asbobiga tegmang.
- ✗ Yonuvchan kir yuvish vositalarini yoki kimyoviy tozalash uchun vositalarni ishlatmang.
- ✗ Elektr asbobi yaqinida yonuvchan spreylarni ishlatmang.
- ✗ Havoda gaz mavjud bo'lgan holda elektr asbobi vilkasini rozetkaga suqmang, shuningdek uni rozetkadan sug'urmang.
- ✗ Bolalar yoki mustaqil bo'lmagan shaxslar elektr asbobi yoki o'ram bilan o'ynashiga yo'l qo'ymang.
- ✗ Kir yuvish mashinasini xonadan tashqarida yoki nam xonada, shuningdek suv sirqishi mumkin bo'lgan joylarda, masalan, suv baki yaqinida yoki ostida o'rnatmang. Agar mashinaga suv tekkan bo'lsa, u tabiiy yo'l bilan qurishi lozim.
- ✗ Kir yuvish mashinasini gilam ustiga, devor yoki mebel yaqinida o'rnatmang.

ELEKTR ASBOBIDAN KUNDALIK FOYDALANISHDA

ZARUR

- ✓ Kiyim o'ralib qolmasligi uchun hamma molniyalarni o'tkazing, ozod iplarni mahkamlang. Kerak bo'lsa, kichik buyumlarni katak xalta yoki yostiqlik jildiga joylang.
- ✓ Har bir kir yuvish dasturi tugashi bilan mashinani o'chiring, shuningdek xavfsizlik va elektr quvvatini tejash uchun uni rozetkadan ajrating. Kir solinadigan lyuk pastki qismini quriguncha arting.
- ✓ Yoqimzid hid paydo bo'lisi oldini olish uchun kir yuvish mashinasi ishlatilmagan vaqtda lyuk eshikchasini ozroq ochib qo'ying.
- ✓ Elektr simi buzilgan holda uni ishlab chiqaruvchi, uning xizmat ko'rsatich vakili yoki boshqa kerakli ixtisosga ega bo'lgan shaxslar almashtirishi kerak.

TAQIQLANADI


- ✗ Kir yuvish mashinasi lyukiga kir yuvish vaqtida tegmang, chunki u qattiq qiziydi!
- ✗ Kir yuvish mashinasi ustiga og'ir predmetlar yoki issiqlik va namlik manbalarini qo'ymang.
- ✗ Yuvish uchun issiq suv bilan ho'llangan g'ovakdor rezina yoki qattiq mochalkalarni ishlatmang.
- ✗ Kir yuvish vositalarini taqsimlagichni kir yuvish paytida ochmang.
- ✗ Kir yuvish paytida eshikchani ochmang. Eshikcha avtomatik qulf bilan jihozlangan bo'lib, u kir yuvish yakunlangandan keyin ochiladi.
- ✗ Agar suv sathini kir yuklash lyuki orqali kuzatish mumkin bo'lsa, eshikchani ochmang.
- ✗ Namlik paydo bo'lishi oldini olish uchun kir yuvish mashinasini polietilen plyonka bilan yopmang.

KIR YUVISH MASHINASIDAN BIRINCHI MARTA FOYDALANISHDAN OLDIN

ISHLASH UCHUN TAYYORLASH

MASHINANI TAYYORLASH

Kir yuvish mashinasidan o'ramni, shu jumladan penoplastdan asosni to'liq yechib oling va mashina turg'un holatda bo'lishini ta'minlang. O'ram materialini to'liq yechib olgandan keyin kirni yuklash uchun lyukda va kir yuvish vositalari uchun konteynerda suv tomchilariga ko'zingiz tushishi mumkin. Bu normal holat, chunki mahsulotni ishlab chiqarishda har bir kir yuvish mashinasi zavodda sifat nazoratidan o'tadi.



TAVSIFI

Quyidagi sxema siz sotib olgan kir yuvish mashinasidan texnik mukammallashtirish natijasida tashqi ko'rinish jihatidan biroz farq qilishi mumkin.

Boshqaruv paneli

Eshik tutqichi

Ishchi yuza

Kir yuvish mashinasi eshigi

Quvvati

Kir yuvish vositalarini taqsimlagich

Filtr qopqog'i

Suv to'kish shlangi


Suv uzatish klapani

Elektr toki shnuri

Orqa qopqog vintlari

Orqa qopqog

Transport boltlari



KIR YUVISH MASHINASIDAN BIRINCHI MARTA FOYDALANISHDAN OLDIN

O'RNATISH




MUHOFAZA PANELLARINI KIRITING VA KALSIY-PLASTIK TAXTANI O'RNATING

O'ramni kiydirma plyonkadan chiqarib olgach, kir yuvish mashinasining ustida turgan kalsiy-plastik taxtacha va muhofaza paneliga duch kelasiz. Taxtachadan shovqinni pasaytirish uchun foydalaniladi, buning uchun uni kir yuvish mashinasi ostiga joylashtirish lozim.

1. Muhofaza panellarini kalsiy-plastik taxtachaning istalgan tomoniga joylashtiring (1-rasm).

2. Mashinani yon tomoniga yotqizing, to'rtta vintni yechib oling (2-rasm).

3. Kalsiy-plastik taxtachani mahkamlang, bunda muhofaza panellardan iborat tomon ichkariga qaragan bo'lishi lozim, so'ng kalsiy-plastik taxtachadagi to'rt teshikka kiritiladigan vintlarni o'rnating (3-rasm). Nihoyat, mashinani vertikal holatda joylashtiring.



TRANSPORT BOLTLARINI YECHIB OLING





Transport boltlari kir yuvish mashinasini tashish vaqtida uning ichidagi tebranishga qarshi komponentlarini mahkamlash uchun mo'ljallangan.

1. Orqa qopqoqni yechib oling.

2. Orqa paneldagi to'rt boltni burab chiqaring va mashina ichida turgan plastmassa stabilizatorlarni chiqarib oling.

3. Orqa qopqoqni joyiga o'rnatng.


4. Boltlardan qolgan teshiklarga komplektaga kiruvchi tiqinlarni o'rnatng.



Izoh:


1. Orqa qopqoqni o'rnatayotganda uning bo'rtiq yuzasi sirtga qaratilganiga ishonch hosil qiling, so'ng orqa qopqoqni 5-rasmda ko'rsatilgandek joyiga o'rnatng.

2. Transport boltlari va plastmassa stabilizatorlarni keyinchalik ulardan foydalanish uchun ishonchli joyda saqlang.



KIR YUVISH MASHINASINI ROSTLASH

Kir yuvish mashinasi tagida balandligi rostlanadigan oyoqchalar mavjud. Ularni mashinadan foydalanishga kirishishdan oldin uni to'g'rilash uchun rostlash lozim. Bu mashinani ishlatish paytida vibratsiyani va shovqin darajasini kamaytirishga imkon beradi. Bu shuningdek mashinaning eskirishini ham kamaytiradi. Mashinani tekis o'rnatish uchun biz spirtli shovundan foydalanishni tavsiya qilamiz. Pol tekis va mustahkam bo'lishi lozim.




KIR YUVISH MASHINASIDAN BIRINCHI MARTA FOYDALANISHDAN OLDIN

SUV TO'LDIRISH SHLANGI


1. Suv to'ldirish shlangidagi kiydirmani suv klapanidagi ajratgichga biriktiring.
2. Suv to'ldirish shlangini toza sovuq suv kraniga ulang.

Izoh: Elektr asbobi bilan birga yetkazib berilgan shlangdan foydalaning. Eski shlanglarni ishlatish taqiqlanadi.



SUVNI TO'KISH SHLANGI

1. Suvni to'kish shlangini suv oqishining oldini olish uchun maxsus kronshteyn bilan mahkamlang. Suvni to'kish shlangi uchun uzaytirgichlardan foydalanmang, agar uzunroq shlangdan foydalanish zarur bo'lsa, texnik mutaxassisga murojaat eting.
2. Suvni to'kish teshigi 80-100 sm balandlikda joylashishi kerak. Suvni to'kish shlangi ajralib ketishining oldini olish uchun uni mashinaning orqa tarafidagi qulfak yordamida qayd eting.




Izoh: Suv to'kish shlangini suvga solib qo'yish

mumkin emas, uni ishonchli ravishda mustahkamlab qo'yish va suv sizib chiqishidan ehtiyot bo'lish kerak. Agar suv ketish shlangi yerda yotsa yoki suv ketadigan quvurning balandligi 80 cm dan kam bo'lsa, kir yuvish mashinasi ichidagi suv suv to'ldirish vaqtida to'xtovsiz oqib ketadi (mustaqil suv oqishi).

ELEKTR TARMOG'IGA ULASH


Kir yuvish mashinasini elektr tarmog'iga ulashdan oldin quyidagilarni tekshiring:

- Rozетка kir yuvish mashinasi maksimal quvvatiga mo'ljallangan (xavsizlik maqsadida mashina zanjiriga 15A tok kuchiga mo'ljallangan saqlagichlar o'rnatish lozim).
- Kuchlanish talablarga muvofiq bo'lishi lozim.
- Elektr rozetkasi o'lcham jihatidan kir yuvish mashinasining vilkasiga mos kelishi lozim.
- Mashinani zaminlangan rozetkaga ulang.



KIR YUVISH MASHINASIDAN BIRINCHI MARTA FOYDALANISHDAN OLDIN

BOSHQARUV PANELI



- | | |
|--|---------------------------------|
| A Dasturlarni tanlash dastagi | G Kir yuvish vositalari bo'limi |
| B Yoqish/O'chirish tugmasi | H Display |
| C Start/Pauza tugmasi | I Suvni tejash tugmasi |
| D Siqish tezligini o'rnatish tugmasi | J Intensiv kir yuvish tugmasi |
| E Kir yuvish temperaturasi tanlash tugmasi | K Qo'shimcha chayqash tugmasi |
| F Kechiktirilgan start tugmasi | |

MASHINA OPERATSIYALARINI BOSHQARISH


- | | |
|---|---|
| A ↪ Dasturlarni tanlash dastagi | _ Dastakni soat mili yo'nalishida / soat mili yo'nalishiga qarshi burash orqali kerakli dasturni tanlash mumkin. 11 dastur ko'zda tutilgan. Dastur tanlangandan keyin tegishli indikator yonadi. |
| B ↪ Yoqish/O'chirish tugmasi | _ Kir yuvish mashinasini yoqish uchun shu tugmani bosing. Kir yuvish mashinasini o'chirish uchun uni QAYTA bosing. Kir yuvish mashinasini o'chirish uchun tugmani 2 sekund davomida yengil bosib turing, chunki tugmalar barmoqlar tegishiga ta'sirchan. |
| C ↪ Start/Pauza tugmasi | _ Kir yuvish mashinasi elektr quvvati manbaiga ulangan va kerakli dastur tanlanganidan so'ng, kir yuvishni boshlash uchun ushbu tugmani asta bosing. Kir yuvish sikli vaqtida kir yuvish mashinasi ishini tugmani yana bir marta bosib to'xtatishingiz mumkin, shundan keyin displeydagi raqamlar lipillay boshlaydi. Kir yuvishni davom ettirish uchun bu tugmani yana bir marta bosing. Kir yuvish sikli vaqtida dasturni bekor qilish uchun displeyda raqamlar lipillay boshlagach, Yoqish/O'chirish tugmasini bosing va dastur bekor bo'ladi. |
| D ↪ Siqish tezligini o'rnatish tugmasi | _ Kerakli siqish tezligini tanlash uchun ushbu tugmani yengil bosing. Tezlik belgilangach, tegishli indikator yonadi.
Izoh: Turli xil kirlar uchun har xil suv temperaturasi va siqish tezligini o'rnatish mumkin. Agar hech qanday maxsus talablar mavjud bo'lmasa, kirni o'z-o'zidan o'rnatilgan sozlamalar yordamida yuving. |
| E ↪ Kir yuvish temperaturasi tanlash tugmasi | _ Ushbu tugmani yengil bosing, kir yuvish temperaturasi indikatorida aks etadi. Temperaturani kir turiga mos ravishda tanlang. Izoh: Agar hech qanday indikator aks etmasa, demak, kir sovuq suvda uyviyapti. |

KIR YUVISH MASHINASIDAN BIRINCHI MARTA FOYDALANISHDAN OLDIN

F → Kechiktirilgan start tugmasi _ Ushbu tugmani yengil bosing, kir yuvish mashinasi belgilangan vaqtdan keyin ishlay boshlaydi va tegishli indikator yonadi. Diapazon 0,5-24 soatni tashkil etadi; ushbu tugmani har bosganingizda, vaqt yarim soatga uzayadi. Tugmani o'rnatgandan keyin, o'rnatilgan vaqtning ortiga sanog'ini boshlash uchun Start/ Pauza tugmasini bosing (dastur ishi tugagunga qadar vaqt ekranda ko'rsatiladi).

Izoh: Kechiktirilgan start vaqti dastur vaqtidan ko'proq bo'lishi lozim, aks holda kir yuvish mashinasi kir yuvish dasturini o'sha zahoti boshlaydi.

G → Kir yuvish vositalari bo'limi _ Bo'limni oching va siz uch bo'linmani ko'rasiz:
1-bo'linma: Boshlang'ich kir yuvish uchun kir yuvish vositasi.
2-bo'linma: Asosiy kir yuvish uchun kir yuvish vositasi.
3-bo'linma: Yumshatgich, konditsioner, xushbo'ylagich va h.k.



Turli kir yuvish temperaturalari uchun mos keladigan kir yuvish vositalari tipi xususida tavsiyalarni, iltimos, kir yuvish vositasining qo'llanmasida qarang.

H → Display _ Displeyda qolgan kir yuvish vaqti haqida axborot va xatolar haqida xabarlar aks etadi.

Izoh: Quvvat manbasi ulangandan keyin displey yoqiladi va qolgan kir yuvish vaqti qiymati kamayadi. Suv bosimi va harorat farq qilishi mumkinligi tufayli, qolgan kir yuvish vaqti tegishli ravishda rostdanlashi mumkin. Agar siqish vaqtida kir barabanda notekis taqsimlangan bo'lsa, kir yuvish vaqti uzaytirilishi mumkin. Bu normal hodisalar.

I → ECO _ Ekologik rejim - Dasturni tanlashdan oldin, to'liq bo'lmagan yuklash (to'liqning 1/2)ni o'rnatish uchun mazkur dasturni tanlasangiz, mashina suv sarfi va kir yuvish vaqtiga tuzatish kiritadi.


J → Intensiv kir yuvish tugmasi _ Agar kir qattiq ifloslangan bo'lsa, dasturni ishga tushirishdan oldin ushbu tugmani bosing. Mazkur tugma bosilganda, kir yuvish vaqti uzaytiriladi.

K → Qo'shimcha chayqash tugmasi _ Qo'shimcha chayqashni ishga tushirish uchun ushbu tugmani bosing. Qo'shimcha chayqash bir siklini tanlash uchun tugmani bir marta bosing. Displeyda «P-1» xabari paydo bo'ladi. Agar tugma bir necha marta bosilsa, displeyda qo'shimcha chayqash ikki yoki uch siklini ko'rsatuvchi «P-2» yoki «P-3» xabarlar paydo bo'ladi. Ayni vaqtda qo'shimcha chayqash indikator yonadi va chayqash sikli davomida lipillab turadi. Displeyda «P-1/2/3» xabari aks etadi va u qolgan chayqash vaqti bilan almashadi. Qo'shimcha chayqash sikli tugaganidan keyin indikator o'chadi va displeyda xabarlar g'oyib bo'ladi.

Izoh: - Ushbu funksiyani «Chayqash» va «Siqish»dan tashqari barcha dasturlar uchun tanlash mumkin.

ELEKTR ASBOBIDAN FOYDALANISH

DASTURLARNI TANLASH



1. Boshlang'ich kir yuvish uchun mo'ljallangan kir yuvish vositasi bo'linmasi
2. Kir yuvish vositasi uchun bo'linma
3. Yumshatgich uchun bo'linma

Dastur	Maksimal temperatura	Dastlabki o'rnatilgan temperatura	2	3	1	Tavsiya etiladigan gazlama tipi	Dastlabki o'rnatilgan siqish tezligi
1 Jun	-- 40°C gacha	20°C	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	Jun gazlama	500 ay/min
2 Sintetika	-- 60°C gacha	40°C	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	Mustahkam bo'yalgan sintetika	1200 ay/min
3 Delikat kir yuvish	-- 90°C gacha	40°C	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	Ip gazlama	1000 ay/min
4 Standart	-- 90°C gacha	40°C	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	Ip gazlama	1200 ay/min
5 Boshlang'ich kir yuvish	-- 90°C gacha	40°C	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	Qattiq ifloslangan gazlama	1000 ay/min
6 Tez kir yuvish	-- 20°C gacha	20°C	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	Sport kiyimi	1000 ay/min
7 Sport	-- 40°C gacha	20°C	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	Xiyol ifloslangan paxta ipidan, zig'ir tolasidan va sintetik gazlamalar	1000 ay/min
8 Aralash	-- 60°C gacha	40°C	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	Turli xil materiallar	1000 ay/min
9 Delikat kir yuvish	-- 40°C gacha	20°C	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	Paxta ipi yoki sintetikadan gazlama	500 ay/min
10 Chayqash	--	--	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	/	1200 ay/min
11 Siqish	--	--	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	/	1200 ay/min

 Ha

 Ma'qulini tanlang

 Yo'q

TEXNIK KO'RSATKICHLARI

Quvvat manbasi	220–240V~ / 50 Gts
Maks. ishchi tok (A)	10
Suv bosimi (MPa)	0,03≤P≤1
Maksimal quvvati (Vt)	2050
O'lchamlari (BxExD)	850 x 600 x 595
Og'irligi (kg)	70

ELEKTR ASBOBIDAN FOYDALANISH

SARFI

SARF JADVALI

Kir yuvish siklining vaqti taxminiy. Haqiqiy kir yuvish vaqti suv bosimi, boshlang'ich suv harorati va hokazolarga qarab farq qilishi mumkin.

Dastur	Temperatura	Maks. yuklash	Energiya sarfi	Suv sarfi	Kir yuvish vaqti	Siqish samaradorligi
Standart	< 40°C	4 kg	0,680 kVt/soat	40,6 l	3:08 soat	53%
	< 60°C	4 kg	0,997 kVt/soat	40,3 l	3:28 soat	53%
	< 60°C	8 kg	0,997 kVt/soat	52,0 l	3:28 soat	53%
Sintetika	40°C	4 kg	/	/	1:50 soat	49%

Paxta ipidan gazlamalarni 60°C va 40°C temperaturali suvda yuvish uchun standart dasturlar normal kir bo'lgan paxta ipidan gazlamalarni yuvish uchun mo'ljallangan va mazkur tipdagi kirni yuvish uchun elektroenergiya va suv sarfi bo'yicha eng samarali dasturlar hisoblanadi. Haqiqiy suv harorati ko'rsatilgandan farq qilishi mumkin.

*) Dasturning energiya sarfi bo'yicha samarali sozlamalari:

1. «Paxta/Standart + 40°C + Intensiv kir yuvish + Maksimal tezlik»
2. «Paxta/Standart + 60°C + Intensiv kir yuvish + Maksimal tezlik»

Kir yuvish uchun eng yaxshi vositani tanlash

	Universal	Rangli buyumlar uchun	Delikat kir yuvish uchun	Maxsus	Yumshatgich
Jun	-	-	-	S	0
Sintetika	S/K	S/K	S	-	0
Eko	S/K	S/K	-	-	0
Standart	S/K	S/K	-	-	0
Miks	S/K	S/K	-	-	0
Delikat	-	-	S	-	0

	Kir yuvish vositasi	Temperatura diapazoni °C da
S	Suyuqlik	Sovuq suv – 60
K	Kukun	40-90
0	Ma'qulini tanlang	- - -
-	Yo'q	- - -

Suyuq vositadan foydalanilgan holda kir yuvishda startni kechiktirish funksiyasidan foydalanish tavsiya etilmaydi. Kir yuvish uchun zarur vosita hajmi o'ramda ko'rsatiladi!

Axborot: Zamonaviy kir yuvish vositalari kirni past temperaturada ham yuva oladi.


KIR YUVISH

Mazkur kir yuvish mashinasi faqat uyda maishiy maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan. Mashinadan tijorat maqsadida foydalangan holda, kafolat majburiyatlari bekor qilinadi. Kir yuvish mashinasidan faqat nazarda tutilgan maqsadlarda foydalaning. Kiyim yoriqlarida ko'rsatilgan yo'l-yo'riqlarga rioya eting va faqat mashinada yuvish uchun mo'ljallangan buyumlarni yuving.



ELEKTROPITANIE


Kir yuvish mashinasini elektr tarmog'iga ulang (220 – 240V~ / 50 Gts)



SUV UZATISH


Kranni oching. Suv toza va shaffof bo'lishi lozim.

Izoh! Kir yuvish mashinasidan foydalanishdan oldin suv uzatish vaqtida kran va suv to'ldirish shlangi o'rtasida biron joyda ham suv sirqimayotganiga ishonch hosil qiling.




KIRNI YUVISH UCHUN TAYYORLASH

- Kirlaringizni mato tolasi turi (paxta, sintetika, jun yoki shoyi) va ifoslanganlik darajasiga qarab ajrating.
- Oq kiyimlarni ranglilaridan alohida qiling. Rangli kiyimlarni avval qo'lda yuvib, ularning rangi o'chishi yoki kirishishini tekshirib ko'ring.
- Cho'ntaklardan mayda jismlarni (kalit, tanga va hokazo) chiqarib oling va qattiq taqinchoqlarni (masalan to'g'nag'ich) yechib oling.



Diqqat! Mashina ichiga tushgan mayda (tugmaga o'xshash) detallar uning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin, bu holda mashinani ta'mirlash xarajatlari foydalanuvchining bo'ynida bo'ladi.

- Choksiz kiyimlar qismlari, nozik matolar va nafis to'qimali matolarni, masalan, yupqa pardalarni ehtiyotkor ishlov beruvchi maxsus kir yuvish xaltachasiga solish lozim (ularni bevosita kir yuvish mashinasida yuvish tavsiya etilmaydi).
- Zanjirsimon yopqich va ilgaklarni berkiting, tugmalarning mustahkam tikilganligini tekshiring, paypoq, qayish, byustgalter va shunga o'xshash mayda narsalarni maxsus xaltachaga soling.
- Cho'yshab, yoping'ich kabi katta narsalarni mashinaga solishdan oldin yoying.
- Ko'ylaklarni teskari ag'daring.




ELEKTR ASBOBIDAN FOYDALANISH

KIR YUVISH MASHINASINI YUKLASH


Mashina eshikchasini oching va baraban ichiga buyumlarni birma-bir soling. Eshikchani zichlab yoping.

- Mashinadan birinchi marta foydalanganda, kir mashina barabanida qolgan moy yoki iflos suvdan ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik uchun bir dasturni kir yuklamasdan ishga soling. Kir yuvishdan oldin siz mashinani kir yuklamasdan, ammo kir yuvish vositasini qo'shib, 60°C temperaturali dasturni tanlagan holda ishga tushirishingiz lozim.
- Kir yuvish mashinasini me'yordan ortiq yuklamang.



KIR YUVISH VOSITASINI TANLASH

Kir yuvish samaradorligi va mashinaning ish ko'rsatkichlari foydalanilayotgan kir yuvish vositasining sifatiga bog'liq. Ko'pirmaydigan maxsus kir yuvish vositalari kir yuvganda yaxshi natija beradi. Sintetik va junli matodan buyumlar uchun maxsus mo'ljallangan kir yuvish vositalari ishlatilishi lozim. Tarkibida trixloretilen mavjud bo'lgan va shunga o'xshash boshqa vositalarni ishlatmang.




Izoh: Kir yuvish vositasini keragidan ortiq solmang, aks holda bu quyidagi vaziyatlardan biriga va kir yuvish mashinasining shikastlanishiga olib kelishi mumkin va bu hol mashinaning xizmat muddatida aks etadi.

1. Ortiqcha ko'pik hosil bo'lishi natijasida chayqash vaqti odatdagidan ko'proq bo'ladi;
2. Ko'pik bosimi ko'payishi natijasida u kir yuvish vositalari lotokidan to'kilishi mumkin;
3. Yakinlovchi siqishdan keyin ko'pik yuvilmay qolib ketishi mumkin.

Tavsiyalar:

1. Kir yuvish vositalari uchun taqsimlagichni har hafta bir marta yuving.
2. Boshlang'ich kir yuvish dasturidan foydalanganda belgilangan dozaning yarmini qo'shish lozim.
3. Kukunli yoki suyuq kir yuvish vositasining o'ramidagi kir yuvish vositalarini dozalash bo'yicha tavsiyalarga amal qilish zarur.



KIR YUVISH VOSITSINI SOLISH

Kir yuvish vositalarini taqsimlagichni oching va tegishli kataklarga kerakli miqdorda kir yuvish vositasi yoki yumshatgichni soling. Taqsimlagich ohista yopib qo'ying. (Taqsimlagichdagi ko'rsatmalarga rioya eting.)

Ehtiyot bo'ling:

- Ivtish dasturi uchun kir yuvish vositasi ikkala bo'limga, 1 va 2 bo'limlarga solinishi lozim. Boshqa dastur tanlangan holda 1-bo'limga kir yuvish vositasini solish kerak emas.
- Suyuq kir yuvish vositasini uning o'ramidagi ko'rsatmalarga muvofiq ishlatilang. Suyuq kir yuvish vositasini boshlang'ich kir yuvish yoki «Kechiktirilgan start» rejimida ishlatmang.
- Yumshatgichni me'yordan ortiq miqdorda qo'shmang, aks holda sun'iy tolalardan to'qilgan matolar shikastlanishi mumkin.

DASTURNI TANLASH

Kir yuvishda eng yaxshi natijalarga erishish uchun kirning turi va ifloslanish darajasiga mos keladigan yuvish dasturini tanlash lozim. Kerakli dasturni tanlash uchun dasturlar selektori dastagini burang.

FUNKSIYALARNI TANLASH

Kerakli opsiyalarni tanlang. (8 va 9-betlarda «Boshqaruv paneli»ga qarang)



KIR YUVISH TEMPERATURASINI O'R NATISH

Temperaturani rostdlash tugmasini bosib va kerakli kir yuvish temperaturasi tanlangunga qadar ushlab turing.

SIQISH TEZLIGINI O'R NATISH

Siqish tezligini rostdlash tugmasini bosib va kerakli tezlik tanlangunga qadar ushlab turing. Siqish temperaturasi va tezligini tanlash uchun "Boshqaruv paneli" va "Boshqaruv funksiyalari" sahifalariga (8 va 9) qarang. Tavsiya etiladigan qiymatni tanlash maslahat beriladi.

KIR YUVISH



Start/Pauza tugmasini bosib. Kir yuvish mashinasi yuklangan dasturlarga muvofiq ishlay boshlaydi. Kir yuvish sikli tugagandan keyin mashina ishi o'z-o'zidan to'xtaydi. Displeyda "End" nishoni paydo bo'ladi. Lyuk eshikchasini oching va kiyimni chiqarib oling.



MUHIM KO'RSATMA – ESHIKCHANI BLOKIROVKA QILISH TIZIMI

Agar kir yuvish siklini dastur ishi tugagunga qadar to'xtatish kerak bo'lsa, quyida ko'rsatilgan yo'l-yo'riqlarga rioya qilish zarur, aks holda eshikcha BERKITILADI.

1. Avval Start/Pauza tugmasini bosib.
2. So'ng kir yuvish mashinasini o'chirish uchun Yoqish/O'chirish tugmasini bosib.
3. Eshikchani ochish imkoniyatiga ega bo'lish uchun 2 minutcha kuting.



KIRNI YUVGANDAN SO'NG

Suv ta'minotini o'chirib, elektr shtepselini rozetkadan sug'uring. Kondensat va yoqimsiz hidlar paydo bo'lmasligi uchun mashinaning eshikchasini oching. Mashina ishlatilmaydigan davrda eshikchani ochiq qoldiring.


ELEKTR TOKINI TEJASH YUZASIDAN MASLAHATLAR

1. Kir yuvish mashinasini bir marta to'liq yuklash uchun kiyimlarni to'plang.
2. Kir yuvish mashinasi barabani me'yordan ortiq yuklanishiga yo'l qo'ymang.
3. Faqat o'ta ifloslangan buyumlarni iviting.
4. Buyumlar qattiq kir bo'lgan holdagina yuvish vaqti va temperaturasini ko'paytiring.
5. Xiyol kir bo'lgan kiyimlarni yuvish uchun kir yuvish vositasi miqdorini kamaytiring yoki bo'lmasa standart yoki delikat kir yuvish uchun dasturni tanlang.
6. Kir yuvish uchun mos keladigan temperaturani tanlang. Zamonaviy kir yuvish vositalari suv temperaturasi past (>20°C) bo'lgan holda ham yaxshi samara beradi.
7. Kir yuvish vositasi o'ramidagi ko'rsatmalarga rioya eting. Kir yuvish vositasini me'yordan ortiq ishlatmang.
8. Barabanda quritishdan foydalanganda maksimal siqish tezligini tanlang.

YAXSHI MASLAHATLAR:

Kir yuvish vaqtida kiyim qo'shish yoki elektr ta'minotida uzoq muddatli uzilish yuz bergani tufayli kiyimni olish uchun, barabanda suv sathi ko'rish darchasining qirrasidan ancha past, suv temperaturasi 50°C dan past ekanligiga, ichki baraban esa ishlamayotganiga ishonch hosil qiling, so'ng suv to'kish naychasini uning kronshteynidan chiqaring va uni suv to'kilishi to'xtagunga pastga tushiring, shundan keyin suv to'kish naychasini joyiga o'rnatib. Start/Pauza tugmasini bosib va eshikcha ochiladi, endi siz kiyim qo'shishingiz yoki uni chiqarib olishingiz mumkin.

Agar eshikcha ushbu yo'l bilan ochilmasa, uni langarcho'p yordamida ochish mumkin, ammo bu usulni faqat so'nggi zarurat holatida qo'llash mumkin.



ELEKTR ASBOBIDAN FOYDALANISH

KIYIMLARGA QAROV SHARTLI BELGILARI

 Chidamli material	 Sovuq suvda oqartirish mumkin	 Kimyoviy tozalash taqiqlangan
 Delikat gazlama	 Oqartirilmasin	 Gorizontal yoyilgan holatda quritilsin
  95°C da yuvilsin	 200°C da dazmollansin	 Vertikal holatda quritilsin
  60°C da yuvilsin	 150°C da dazmollansin	 Taxlangan holatda quritilsin
  40°C da yuvilsin	 100°C da dazmollansin	 Barabanda normal temperaturada quritish
  20°C da yuvilsin	 Dazmollanmasin	 Barabanda past temperaturada quritish
 Qo'lda yuvish	 Har qanday eritgich bilan kimyoviy tozalash	 Barabanda quritish mumkin emas
 Yuvish taqiqlangan	 Perxlorid bilan kimyoviy tozalash	
 Woolmark nishoni, yuqori sifatli tabiiy jun	 Aviayonilg'i bilan kimyoviy tozalash	


YUKLASHGA DOIR AXBOROT

Choyshab (bir o'rinlik)	Paxta	Taxminan 800 g
Adyol	Jun	Taxminan 3000 g
Aralash tolalardan kiyim	/	Taxminan 800 g
Pijak	Paxta	Taxminan 800 g
Jinsi	/	Taxminan 800 g
Maxsus kiyim	Paxta	Taxminan 950 g
Ayollar pijamasi	/	Taxminan 200 g
Ko'ylaklar	/	Taxminan o 300 g
Paypoqlar	Aralash tolalardan gazlamalar	Taxminan 50 g
Futbolkalar	Paxta	Taxminan 300 g
Ich kiyim	Aralash tolalardan gazlamalar	Taxminan 70 g

KIR YUVISH MASHINASIGA QAROV VA UNI TOZALASH


KIR YUVGANDAN SO'NG

Har safar kir yuvgandan so'ng cuv ta'minotini o'chirib, elektr shtepselini rozetkadan sug'uring. Kondensat va yoqimsiz hidlar paydo bo'lmasligi uchun lyuk eshikchasini ochib qo'ying. Agar kir yuvish mashinasi uzoq vaqt ishlatilmaydigan bo'lsa, uning ichidagi suvni to'kib tashlang va suv to'kish shlangini almashtiring.



KIR YUVISH VOSITALARI TAQSIMLAGICHINI TOZALASH

Kir yuvish vositalari taqsimlagichini vaqti-vaqti bilan tozalab turing. Taqsimlagichni chiqarib oling, uni suvda yuving va qayta joyiga o'rnatib.




KIR YUVISH MASHINASINI TOZALASH

Mashinani tozalash va unga texnik xizmat ko'rsatishdan oldin elektr ta'minoti kabelini rozetkadan chiqaring. Mashinaning korpusi va rezina qismlarini tozalash uchun sovunli eritma bilan ho'llangan yumshoq lattadan foydalaning. Organik kimyoviy moddalar va zanglatadigan eritgichlarni ishlatmang.

FILTRNI TOZALASH

Filtrni har oy bir marta tozalang:



Yassi shlitli ochqichni filtr qopqog'idagi pazga kiriting va uni ochilguncha torting, me'yordan ortiq kuch ishlatmang (1-rasm).

Rezina shlangni uning qismasidan yechib oling va uning tagiga mos keladigan konteynerni qo'ying, suvni to'kish uchun tiqinni chiqaring (2-3-rasmlar).

Tiqinni qayti o'rnatib va shlangni joyiga, uning qismasiga kiriting (4-5-rasmlar).


Filtni burab chiqarib oling va oqar suv ostida yuving, uni qayta o'rnatib va qopqoqni yopib qo'ying (6-7-8-rasmlar).

Filtr joyida bo'lishi lozim, aks holda suv oqib ketishi yuz berishi mumkin.

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

SUV TA'MINOTI KLAPANI VA UNING FILTRI


Suv ta'minoti klapani va uning filtri begona materiallar tiqilishi va suv ta'minoti to'xtab qolishining oldini olish uchun vaqti-vaqti bilan tozalab turilishi lozim.



KIR YUVISH MASHINASINI YANGI JOYGA KO'CHIRISH


Kir yuvish mashinasini boshqa joyga ko'chirish talab etilgan holda, mashina shikastlanishining oldini olish uchun, uni o'rnatishdan oldin chiqarib olingan transport boltlarini quyida ko'rsatilgandek o'rninging.

1. Orqa qopqoqni yechib oling.
2. Tiqinlarni chiqarib oling.
3. Boltlarni gayka kaliti bilan burab qotiring.
4. Sintetik stabilizatorlar va transport boltlarini o'rninging.
5. Orqa qopqoqni qayta joyiga o'rninging.



KIR YUVISH MASHINASIDAN UZOQ VAQT FOYDALANMASLIK

Agar mashina uzoq vaqt davomida ishlatilmaydigan bo'lsa, elektr shtepselini rozetkadan sug'urib oling va suv ta'minotini berkiting. Kondensat va yoqimsiz hidlar paydo bo'lishining oldini olish uchun lyuk eshikchasini ochib qo'ying. Mashina bekor turish davrida eshikchani ochiq qoldiring.



INDIKATSIYA KODLARI VA MAXSUS FUNKSIYALAR

KOD	SABABI	BARTARAF ETISH USULI
Err1	↪ Eshikcha to'g'ri yopilgan.	_ Eshikchani to'g'ri yoping, so'ng Start/Pauza tugmasini bosing.
Err2	↪ Suvni to'kish paytida xatoga yo'l qo'yilgan, suvni to'kish vaqti 6 minutdan oshgan.	_ Filtrni tozalang, suvni to'kish shlangi qisilib qolmaganini tekshiring. Agar xato bartaraf etilgan bo'lmasa, iltimos, texnik xizmat ko'rsatuvchi mutaxassisga murojaat eting.
Err3	↪ Temperatura datchiki noto'g'ri ulangan yoki shikastlangan.	_ Texnik xizmat ko'rsatuvchi mutaxassisga murojaat eting.
Err4	↪ Isitgich xatosi (sikl oxirida paydo bo'ladi).	_ Texnik xizmat ko'rsatuvchi mutaxassisga murojaat eting.
Err5	↪ Suv to'lish vaqti 8 minutdan ortiq. ↪ Suv to'kish shlangining balandligi 80 sm dan past. ↪ Suv to'kish shlangi suv ichida.	_ Kran ochilgani va suv bosimi me'yorda ekanligiga ishonch hosil qiling. Agar xato bartaraf etilgan bo'lmasa, xizmat ko'rsatuvchi xodimga murojaat eting. _ Suv to'kish shlangini shunday o'rnatilgiki, eng yuqori nuqta 80-100 sm darajasida bo'lsin. _ Suv to'kish shlangi suvning ichida emasligiga ishonch hosil qiling.
Err7	↪ Dvigatelning xatosi.	_ Texnik xizmat ko'rsatuvchi mutaxassisga murojaat eting.
Err8	↪ Suv sathi xavfsiz darajadan oshgan.	_ Texnik xizmat ko'rsatuvchi mutaxassisga murojaat eting.
End	↪ Kir yuvish sikli tugagan.	
1:25	↪ Qolgan vaqt – 1 soat 25 minut.	
19:30	↪ Holat haqida axborot: Kechiktirilgan ish uchun belgilangan vaqt.	
UNb	↪ Kir yuvish mashinasida notekis yuklash funksiyasi mavjud. Yuklangan kir vazni yo'l qo'yilgan maksimal vazndan ortiq bo'lsa, mashina siqishni boshlay olmaydi va anomol tebranish yuz bermasligi, shovqin chiqmasligi uchun barabanni past tezlikda aylantira boshlaydi.	_ 1. Bitta narsa (gilam, choyshab, dasturxon va h.k.) ni yuvayotgan bo'lsangiz, uni baraban ichida simmetrik taqsimlang. 2. Ho'l kirmi qo'lda siqib, uning vaznini kamaytirish va barabanga qayta kiriting. 3. Kirmi chiqarib oling, so'ng uni kir yuvish mashinasi ichida barabanning ichki devorlari bo'ylab mutanosib holatda qayta taqsimlang. 4. Yuklashning nomutanosibligini kamaytirish uchun baraban ichiga 1 yoki 2 kir qo'shing. 5. Siqish rejimini qayta ishga tushiring. Agar muammo bartaraf etilgan bo'lmasa, iltimos, texnik xizmat ko'rsatuvchi mutaxassisga murojaat eting.

- Boshqaruv panelini blokirovka qilish funksiyasi: kir yuvish dasturi ishga tushirilganidan keyin "Kechiktirilgan start" va "Start/pauza" tugmalarini bir vaqtning o'zida bosing va 3 sekund davomida ushlab turing. Shundan keyin dasturni tugmalar yoki dastaklar yordamida o'zgartirish mumkin bo'lmaydi. Blokirovkani bekor qilish uchun yana "Kechiktirilgan start" va "Start/pauza" tugmalarini bir vaqtning o'zida bosing va 3 sekund davomida ushlab turing.
- Elektr ta'minoti to'xtatilgan holda sozlamalarni saqlash funksiyasi: elektr tarmog'idan tok kelishi qo'qqisdan to'xtagan yoki dasturni bajarish paytida elektr ta'minotini to'xtatish talab etilgan holda, joriy sozlamalar saqlanadi va ish elektr ta'minoti qayta tiklangandan keyin davom ettiriladi.
- Dasturni bekor qilish uchun

«Start/pauza» tugmasini bosing, so'ng elektr ta'minotini to'xtating, shundan keyin dastur o'z-o'zidan bekor bo'ladi. Dasturlar selektorini yana bir marta burang va boshqa dasturni tanlang.

1. Zarur holda tovushli signalni bekor qilish mumkin. Iltimos, buning uchun quyidagi amallarni bajaring: Kir yuvish mashinasini yoqing va dasturlarni tanlash dastagini siqish holatiga o'rnatilg, so'ng «Kechiktirilgan start» va «Qo'shimcha chayqash» tugmalarini bosing va 3 sekund davomida ushlab turing. Displayda tovushli signal o'chirilganini ko'rsatuvchi «BEEP OFF» («Signalni O'CHIRISH») xabari paydo bo'ladi. Tovushli signalni yoqish uchun yuqorida ko'rsatilgan amallarni yana bir karra bajaring va displayda «BEEP ON» («Signalni YOQISH») xabari paydo bo'ladi..
2. Izoh: Siqish vaqtda, agar haddan tashqari ko'p ko'pik hosil bo'lsa, kir yuvish mashinasi elektr dvigatelni himoyalash uchun ko'pikni avtomatik ravishda bartaraf etadi; elektr dvigatel to'xtaydi va suv to'kish nasosi suvni 90 sekund davomida uzluksiz to'kadi. Agar bu 3 marta dan ortiq yuz bersa, elektr dvigatel sikl oxirigacha siqmasdan to'xtaydi.

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

NOSOZLIKLARNI ANIQLASH VA BARTARAF ETISH

Quyida keltirilgan vaziyatlar muammolar hisoblanmaydi. Jiddiy nosozlik aniqlangan holdagina servis markaziga murojaat eting.

NOSOZLIK	SABABI	BARTARAF ETISH USULLARI
Kir yuvish mashinasi ishlamayapti.	<ul style="list-style-type: none"> → Elektr tarmog'iga to'g'ri ulanmagan. → Elektr ta'minotida uzilish. → Kir yuvish mashinasi eshikchasi to'g'ri yopilgan. → Mashina yoqilmagan. 	<ul style="list-style-type: none"> _ Elektr tarmog'iga ulanishni tekshiring. _ Elektr ta'minoti tekshiring. _ Kir yuvish mashinasi eshikchasini to'g'ri yoping. _ Mashina yoqilganiga ishonch hosil qiling.
Kir yuvish mashinasi ichiga suv to'lmayapti.	<ul style="list-style-type: none"> → «Start/Pauza» tugmasi bosilmagan. → Suv ta'minoti krani berk. → Suv bosimi 0,03 MPa dan past. → Suv ta'minoti shlangi buralib qolgan. → Suv uzatilishida uzilish. → Dasturlar selektori dastagi to'g'ri o'rnatilmagan. → Kir yuvish mashinasi eshikchasi to'g'ri yopilgan. → Suv ta'minoti shlangi filtri kirlangan. 	<ul style="list-style-type: none"> _ «Start/Pauza» tugmasini bosing. _ Suv ta'minoti kranini oching. _ Suv bosimini tekshiring. _ Suv ta'minoti shlangini tekshiring. _ Suv uzatilishini ta'minlang. _ Dasturlar selektori dastagini to'g'ri o'rnatting. _ Kir yuvish mashinasi eshikchasini to'g'ri yoping. _ Suv ta'minoti shlangi filtrini tozalang.
Suv to'ldirish jarayonida mashina suvni to'kib tashlayapti.	<ul style="list-style-type: none"> → Suv to'kish shlangi eng yuqori nuqtasining balandligi 80 sm dan past. → Suv to'kish shlangi suv ichida. 	<ul style="list-style-type: none"> _ Suv to'kish shlangini shunday o'rnatilginki, eng yuqori nuqta 80-100 sm darajasida bo'lsin. _ Suv to'kish shlangi suvning ichida emasligiga ishonch hosil qiling.
Suv to'kilmayapti.	<ul style="list-style-type: none"> → Suv to'kish shlangi ifloslangan. → Suv to'kish shlangining eng yuqori nuqtasi pol sathidan 100 sm dan ortiq balandlikda joylashgan. → Filtr kirlangan. 	<ul style="list-style-type: none"> _ Suv to'kish shlangini tozalang. _ Suv to'kish shlangining eng yuqori nuqtasi pol sathidan 100 sm dan pastda joylashganiga ishonch hosil qiling. _ Filtrni tozalang.
Siqish paytida kuchli tebranish.	<ul style="list-style-type: none"> → Transportirovka qilish boltlarining hammasi yechib olinmagan. → Kir yuvish mashinasi notekis yuzada joylashgan va tekis o'rnatilmagan. → Mashinaga 8 kg dan ortiq kir yuklangan. 	<ul style="list-style-type: none"> _ Transportirovka qilish boltlarining hammasini yechib oling. _ Kir yuvish mashinasi tekis yuzada joylashgani va tekis o'rnatilganiga ishonch hosil qiling. _ Baraban yukini kamaytiring.
Ish kir yuvish sikli tugamasidan to'xtatilgan.	<ul style="list-style-type: none"> → Elektr ta'minotida yoki suv ta'minotida uzilish. 	<ul style="list-style-type: none"> _ Elektr ta'minoti yoki suv ta'minoti manbasini tekshiring.
Ish ma'lum vaqtga to'xtagan.	<ul style="list-style-type: none"> → Kir yuvish mashinasi xato haqida xabar bergan. → Kir yuvish mashinasi ivitish rejimida ishlayaptimi? 	<ul style="list-style-type: none"> _ Nosozliklar kodlarini tekshiring. _ Amalni bekor qilish uchun chayqash tugmasini yoki Start/Pauza tugmasini qayta bosing.
Barabanda ko'pik haddan tashqari ko'p, u kir yuvish vositalari taqsimlagichiga kirgan.	<ul style="list-style-type: none"> → Kir yuvish vositasi kam ko'pik hosil qiladigan vosita emas yoki qo'lda kir yuvish uchun mo'ljallangan. → Kir yuvish vositasi haddan tashqari ko'p solingan. 	<ul style="list-style-type: none"> _ Kir yuvish vositasi to'g'ri tanlanganiga ishonch hosil qiling. _ Taqsimlagichda kir yuvish vositasi miqdorini kamaytiring.
Kir yuvish vaqtini avtomatik sozlash.	<ul style="list-style-type: none"> → Kir yuvish dasturining ishlash vaqtiga tuzatish kiritiladi. 	<ul style="list-style-type: none"> _ Bu normal holat va mashina ishiga ta'sir ko'rsatmaydi.
Kir siqilmayapti.	<ul style="list-style-type: none"> → Barabanda kir notekis taqsimlangan. 	<ul style="list-style-type: none"> _ Kir qo'shing yoki siqish dasturini yana bir karra ishga tushiring.

TEXNIKA XAVFSIZLIGIGA DOIR MUHIM AXBOROT

MAHSULOT TEXNIK KO'RSATKICHLARI HAQIDA MA'LUMOTLAR VARAQASI (O'zDSt 3017:2015 ga muvofiq)		
Savdo belgisi	Haier	
Model №	HW60-1029	HW60-1229S
Nominal sig'imi (kg)	6	6
Energiya samaradorligi toifasi	A	A
Elektr tokining bir yillik sarfi (kVt-soat) ¹⁾	195	195
«Paxta 60°C», to'liq yuklash rejimida elektr toki sarfi (kVt/sikl)	0,977	0,977
«Paxta 60°C», qisman yuklash rejimida elektr toki sarfi (kVt/sikl)	0,997	0,997
«Paxta 40°C», qisman yuklash rejimida elektr toki sarfi (kVt/sikl)	0,680	0,680
O'chirilgan holatda elektr toki sarfi	0,48	0,48
Yoqilgan holatda elektr toki sarfi	0,48	0,48
Yillik suv sarfi (l) ²⁾	10220	10220
Siqish va quritish samaradorligi toifasi ³⁾	C	B
Siqish maksimal tezligi (ay/daq) ⁴⁾	1000	1200
Namlilikning qoldiq miqdori (%) ⁴⁾	53	
«Standart 60°C paxta» dasturi ⁵⁾	Paxta/Standart + 60°C + Intensiv kir yuvish + Maksimal tezlik	
«Standart 40°C paxta» dasturi ⁵⁾	Paxta/Standart + 40°C + Intensiv kir yuvish + Maksimal tezlik	
«Paxta 60°C» dasturi vaqti, to'liq yuklash (min)	208	
«Paxta 60°C» dasturi vaqti, qisman yuklash (min)	208	
«Paxta 40°C» dasturi vaqti, qisman yuklash (min)	188	
O'chirilgunga qadar kutish rejimi vaqti (min) ⁶⁾	-	
Taraladigan akustik shovqin (kir yuvish/siqish) (dB(A)) ⁷⁾	57/78	
Tipi	alohida turuvchi	
<p>¹⁾ «Paxta 60°C» va «40°C» dasturlari uchun to'liq va qisman yuklangan holatda kam elektr toki iste'mol qilish rejimlarida yuvish dasturlari uchun 220 standart sikl hisobidan. Amalda elektr toki iste'mol qilish asbobdan foydalanish usuliga bog'liq.</p> <p>²⁾ «Paxta 60°C» va «40°C» dasturlari uchun to'liq va qisman yuklangan holatda yuvish dasturlari uchun 220 standart sikl hisobidan. Amalda elektr toki iste'mol qilish asbobdan foydalanish usuliga bog'liq.</p> <p>³⁾ G toifasi samaradorlikning eng past darajasini, A toifasi esa – eng yuqori darajasini ifodalaydi.</p> <p>⁴⁾ «Standart 60°C paxta» dasturida to'liq va «Standart 40°C paxta» dasturida qisman yuklangan holatda yuvish standart dasturidan foydalanilganda.</p> <p>⁵⁾ «Standart 60°C paxta» va «Standart 40°C paxta» dasturlari – bu etiketkada va texnik ko'rsatkichlar haqida ma'lumotlar varaqasida tavsiflangan kir yuvish standart dasturlari. Ular normal kirlangan paxta ipidan matoni yuvish uchun mos keladi va elektr toki iste'mol qilish, suv sarfi nuqtai nazaridan ayniqsa samaralidir.</p> <p>⁶⁾ Elektr tokini boshqarish tizimi mavjud bo'lgan holda.</p> <p>⁷⁾ «Standart 60°C paxta» dasturiga muvofiq to'liq yuklangan holatda.</p>		

Haier

Производитель:

«Haier Overseas Electric Appliances Corp. Ltd»

Хайер Оверсиз Электрик Апплаенсиз Корп. Лтд

Адрес:

Room S401,Haier Brand building,Haier Industry park

Hi-tech Zone,Laoshan District Qingdao, China

Рум S401, Хайер бренд билдинг, Хайер индастри парк

Хай-тек зон, Лаошан дистрикт, Циндао, Китай

Предприятие-изготовитель:

«Haier Overseas Electric Appliances Corp. Ltd»

Хайер Оверсиз Электрик Апплаенсиз Корп. Лтд

Адрес:

Room S401,Haier Brand building,Haier Industry park

Hi-tech Zone,Laoshan District Qingdao,China

Рум S401, Хайер бренд билдинг, Хайер индастри парк

Хай-тек зон, Лаошан дистрикт, Циндао, Китай

Импортер:

Филиал ООО «ХАР» в Красногорском р-не МО

Адрес импортера:

143442, Московская область, Красногорский район,

с/п Отрадное, 69 км МКАД, офисно-

общественный комплекс ЗАО "Тринвуд", стр. 31.

Ishlab chiqaruvchi:

«Haier Overseas Electric Appliances Corp. Ltd»

Xayer Oversiz Elektrik Applianses korp., LTD

Manzil:

Room S401, Haier Brand building, Haier Industry park Hitech

Zone, Laoshan District Qingdao,China

Rum S401, Xayer Brand Bilding, Xayer Indastri Park, Xaytech

Zon, Laoshan District Sindao, Xitoy

Ishlab chiqaruvchi -korxonа:

«Haier Overseas Electric Appliances Corp. Ltd» / Xayer

Oversiz Elektrik Applianses korp., LTD

Manzil:

Room S401, Haier Brand building, Haier Industry park Hitech

Zone, Laoshan District Qingdao,China

Rum S401, Xayer Brand Bilding, Xayer Indastri Park, Xaytech

Zon, Laoshan District Sindao, Xitoy

